

**HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI
YUKSALTIRISHNING ZARUR SHARTI SIFATIDA HUQUQIY
TARBIYANING AHAMIYATI**

Murodjonova Mubina Iqboljon qizi

Fargʻona yuridik texnikumi
“Sud-huquqiy faoliyat” yoʻnalishi
2-bosqich 43-24-guruh oʻquvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy tarbiyaning shaxs, jamiyat va davlat huquqiy madaniyatini yuksaltirishdagi oʻrni, huquqiy ong, huquqiy bilim, huquqiy eʼtiqod va qonuniy xulq-atvorni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Huquqiy tarbiyaning huquqiy taʼlim, huquqiy targʻibot, maʼnaviy-axloqiy tarbiya, yuridik amaliyot va oʻzini oʻzi huquqiy tarbiyalash bilan oʻzaro bogʻliqligi ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: : huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, huquqiy taʼlim, huquqiy targʻibot, huquqiy savodxonlik, huquqiy xulq-atvor, qonunga hurmat, huquqiy nigilizm, maʼnaviy tarbiya.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы роль правового воспитания в повышении правовой культуры личности, общества и государства, а также его значение в формировании правового сознания, правовых знаний, правовых убеждений и правомерного поведения. Раскрыта взаимосвязь правового воспитания с правовым образованием, правовой пропагандой, духовно-нравственным воспитанием, юридической практикой и правовым самовоспитанием.

Ключевые слова: правовое сознание, правовая культура, правовое воспитание, правовое образование, правовая пропаганда, правовая грамотность, правомерное поведение, уважение к закону, правовой нигилизм, духовное воспитание.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of legal upbringing in enhancing the legal culture of the individual, society, and the state, as well as its importance in shaping legal consciousness, legal knowledge, legal beliefs, and lawful behavior. It also reveals the interrelationship of legal upbringing with legal education, legal awareness-raising, spiritual and moral education, legal practice, and legal self-education.

Keywords: legal consciousness, legal culture, legal upbringing, legal education, legal awareness-raising, legal literacy, lawful behavior, respect for the law, legal nihilism, spiritual education.

Huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish faqat mukammal qonunchilik tizimini shakllantirish, davlat organlari faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish yoki inson huquqlarini normativ hujjatlarda mustahkamlash bilan cheklanmaydi. Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarga samarali ta'sir ko'rsatishi, eng avvalo, fuqarolarning ularni bilishi, mazmun-mohiyatini tushunishi, huquqqa nisbatan ongli munosabatda bo'lishi va huquq normalari talablariga ixtiyoriy ravishda amal qilishiga bog'liq. Shu sababli aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat esa o'z-o'zidan yoki faqat normativ-huquqiy hujjatlar e'lon qilinishi natijasida shakllanmaydi. Ular uzoq muddatli, maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va uzluksiz huquqiy tarbiya jarayoni orqali rivojlanadi.

Huquqiy ong ijtimoiy ongning mustaqil shakllaridan biri bo'lib, shaxslar, ijtimoiy guruhlar va jamiyatning huquq, qonunchilik, qonuniylik, huquq-tartibot, inson huquqlari va yuridik majburiyatlarga nisbatan qarashlari,

g'oyalari, tasavvurlari, his-tuyg'ulari va baholarini ifodalaydi. Huquqiy ong shaxsning faqat qonun matnini bilishini emas, balki huquqning ijtimoiy qimmatini anglashini, qonuniy va g'ayriqonuniy harakatlarni farqlay olishini, huquqiy hodisalarga baho berishini ham qamrab oladi. O'zbek huquqiy adabiyotlarida huquqiy ong huquq va qonuniylikka munosabatda namoyon bo'ladigan e'tiqodlar, tasavvurlar, baholar, his-tuyg'ular hamda ma'naviyatning boshqa tarkibiy qismlari tizimi sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, huquqiy ongning huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyatdan tashkil topishi, huquqiy mafkura huquqiy g'oyalar, nazariyalar va konsepsiyalarning ilmiy tizimlashtirilgan ifodasi bo'lsa, huquqiy ruhiyat shaxs va ijtimoiy guruhlarining huquqqa nisbatan hissiy munosabati, kayfiyati, odatlari va kechinmalarini qamrab olishi ko'rsatiladi.[1]

Huquqiy madaniyat huquqiy ongga nisbatan kengroq va murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisadir. U shaxsning huquqiy bilimlari, huquqqa munosabati, huquqiy qadriyatlarni e'tirof etishi, qonun talablariga rioya qilishi, o'z huquqlarini qonuniy vositalar orqali himoya qila olishi va jamiyatning huquqiy hayotida faol ishtirok etishida namoyon bo'ladi. Huquqiy madaniyatning mazmuni huquqni bilish, huquqqa ijobiy munosabat, qonunga rioya qilish odati va huquqiy faollik kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.[2] Binobarin, qonunlarni yoddan bilishning o'zi shaxsning huquqiy madaniyati yuqori ekanini anglatmaydi. Huquqiy bilim qonuniy xatti-harakat, huquqqa hurmat va huquqiy faollik bilan birlashgandagina huquqiy madaniyatga aylanadi.

U.Tojixonov va A.Saidov huquqiy madaniyatni jamiyat umumiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uni huquqiy qadriyatlar, qonunchilikning rivojlanganlik darajasi, huquqni amalga oshirish amaliyoti va shaxslarning huquqiy xulq-atvori bilan bog'laydilar. Ularning yondashuviga ko'ra, huquqiy madaniyatni faqat fuqarolarning huquqiy savodxonligi bilan tenglashtirish mumkin emas. U jamiyatda huquqning

tutgan o‘rni, qonunlarning ijtimoiy qadri, huquqni qo‘llash organlarining faoliyati va insonning huquqiy faolligi kabi bir qator omillar birligidan tashkil topadi.[3] Demak, huquqiy madaniyat shaxsiy va ijtimoiy darajada namoyon bo‘ladigan, huquqiy bilimdan boshlanib, qonuniy xulq-atvor va faol fuqarolik pozitsiyasi bilan yakunlanadigan yaxlit tizimdir.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishida huquqiy tarbiya hal qiluvchi o‘rin tutadi. Huquqiy tarbiya — shaxs va jamiyat ongiga huquqiy bilimlar, huquqiy qadriyatlar, qonunga hurmat, huquq va majburiyatlar birligi, huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik g‘oyalarini maqsadga muvofiq, rejali va uzluksiz ta’sir orqali singdirish jarayonidir. Huquqiy adabiyotlarda u jamiyat a’zolarining ongi va yurish-turish madaniyatiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy va maqsadga muvofiq ta’sir etish orqali singdirib borish jarayoni sifatida ifodalanadi. Huquqiy tarbiyaning asosiy vositalari qatoriga huquqiy ta’lim, huquqiy targ‘ibot, yuridik amaliyot, huquqiy axborot va o‘zini o‘zi huquqiy tarbiyalash kiritiladi.[4]

Mazkur ta’rif huquqiy tarbiyaning ikki o‘zaro bog‘liq maqsadini ko‘rsatadi. Birinchisi, shaxsga muayyan huquqiy bilimlarni yetkazish, ikkinchisi esa ushbu bilimlarni uning e’tiqodi, xulq-atvor odati va fuqarolik pozitsiyasiga aylantirishdir. Agar huquqiy tarbiya faqat qonun moddalarini o‘rgatish bilan cheklansa, u shaxsning huquqiy madaniyatiga yetarli ta’sir ko‘rsata olmaydi. Inson qonunni bilishi, lekin shaxsiy manfaati yo‘lida uni buzishga tayyor bo‘lishi mumkin. Shuning uchun huquqiy tarbiyaning asosiy natijasi huquqiy ma’lumotga ega shaxs emas, balki huquqni qadriyat sifatida e’tirof etadigan, qonuniy harakat qilishga ichki ehtiyoj sezadigan va huquqbuzarliklarga nisbatan murossasiz munosabatda bo‘ladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Huquqiy tarbiya va huquqiy ta’lim o‘zaro yaqin tushunchalar bo‘lsa-da, ularni aynanlashtirish to‘g‘ri emas. Huquqiy ta’lim shaxsga tizimlashtirilgan huquqiy bilimlar, tushunchalar va amaliy ko‘nikmalar berishga qaratilgan

pedagogik jarayon bo'lsa, huquqiy tarbiya huquqiy bilimlar asosida shaxsning huquqiy e'tiqodi, hissiyoti, qadriyatlari va xulq-atvorini shakllantiradi. Huquqiy ta'lim insonga o'z huquqlari va majburiyatlarini bilish imkonini bersa, huquqiy tarbiya unda mazkur huquq va majburiyatlarga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, boshqa shaxslarning huquqlarini hurmat qilish hamda qonun talablariga amal qilish ehtiyojini qaror toptiradi. Shu ma'noda huquqiy ta'lim huquqiy tarbiyaning muhim vositasi, huquqiy tarbiya esa huquqiy ta'lim mazmunini shaxsning ma'naviy va amaliy fazilatlariga aylantiradigan kengroq ijtimoiy-pedagogik jarayondir.

Huquqiy tarbiyaning huquqiy ongni yuksaltirishdagi ahamiyati, avvalo, uning bilish vazifasida namoyon bo'ladi. Shaxs huquqiy tarbiya orqali Konstitutsiya, qonunlar, inson huquqlari, davlat organlarining vakolatlari, sud orqali himoyalaniş imkoniyatlari va yuridik javobgarlik asoslari haqida bilim oladi. Huquqiy bilimlarning yetishmasligi fuqarolarning o'z huquqlarini himoya qila olmasligi, g'ayriqonuniy qarorlarga nisbatan befarqligi yoki huquqbuzarlikni oddiy ijtimoiy holat sifatida qabul qilishiga olib kelishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF–5618-son Farmonida aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan kam foydalanilishi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga shart-sharoit yaratayotgani qayd etilgan.

Huquqiy tarbiyaning ikkinchi muhim vazifasi baholovchi xususiyatga ega. Huquqiy ongi rivojlangan shaxs ijtimoiy munosabatlar va davlat organlari faoliyatini qonuniylik, adolat, tenglik, insonparvarlik va huquq ustuvorligi mezonlari asosida baholay oladi. U o'zining yoki boshqalarning harakatlari qonunga muvofiq yoki zid ekanini anglaydi, davlat organi qarorining huquqiy asosini tekshirishga harakat qiladi va zarur hollarda qonuniy himoya vositalaridan foydalanadi. Bu jihatdan huquqiy tarbiya

shaxsda tanqidiy huquqiy tafakkurni shakllantirib, uni huquqiy munosabatlarning passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylantiradi.

Huquqiy tarbiyaning tartibga soluvchi vazifasi inson xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishida ko'rinadi. Huquq normasi davlat tomonidan qabul qilinishi bilanoq avtomatik ravishda barcha shaxslarning xulq-atvorini o'zgartirib yubormaydi. Uning talablari inson ongi orqali qabul qilinib, anglanib va ichki e'tiqodga aylangandagina amaliy xatti-harakatda namoyon bo'ladi. Huquqiy adabiyotlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyat huquqiy ta'sir ko'rsatish mexanizmidagi mustaqil o'rin tutishi, ularsiz qonun yaratish ham, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish ham to'liq samara bermasligi ko'rsatilgan.[5] Shu sababli huquqiy tarbiya qonun talablarini tashqi majburlov vositasidan shaxsning ichki xulq-atvor qoidasiga aylantiradi.

Huquqiy tarbiya shaxsda huquqiy e'tiqodni shakllantirishi bilan ham ahamiyatlidir. Huquqiy e'tiqod shaxsning qonunga rioya qilish zarurligini anglashi, huquq va adolatga ishonishi, g'ayriqonuniy xatti-harakatni axloqiy va ijtimoiy jihatdan qabul qilmasligini bildiradi. Bunday e'tiqod shakllanmagan sharoitda shaxs qonunga faqat jazodan qo'rqqani uchun amal qilishi mumkin. Jazo xavfi kamaygan yoki huquqbuzarlik yashirin sodir etilishi mumkin bo'lgan vaziyatda esa u qonun talabini buzishga moyil bo'ladi. Huquqiy tarbiyaning maqsadi qonunga tashqi qo'rquv asosida emas, balki ichki ishonch, vijdon va ijtimoiy mas'uliyat asosida rioya qiladigan shaxsni tarbiyalashdir.

Bu o'rinda huquqiy tarbiyaning ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liqligi namoyon bo'ladi. Huquq inson xatti-harakatining davlat tomonidan kafolatlangan majburiy chegaralarini belgilasa, axloq, vijdon, halollik, or-nomus, adolat va mas'uliyat kabi ma'naviy qadriyatlar shaxsni ushbu chegaralarga ongli ravishda amal qilishga undaydi. Shuning uchun huquqiy tarbiyani ma'naviy tarbiyadan ajratilgan holda olib borish kutilgan natijani bermaydi. Shaxsga uning subyektiv huquqlarini o'rgatish bilan bir

vaqtda burch, mas'uliyat, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish, shaxsiy manfaat bilan jamiyat manfaatini uyg'unlashtirish g'oyalari ham singdirilishi lozim.

O'zbekistonda huquqiy tarbiya davlat huquqiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF–5618-son Farmoni bilan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Farmonda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlarining tizimli va uzviy tashkil etilmagani, oila, mahalla, ta'lim muassasalari va tashkilotlarda huquqiy axborotni yetkazishning ta'sirchan mexanizmlari yetarli emasligi tanqidiy baholangan. Shuningdek, globallashtirish va axborot texnologiyalari sharoitida huquqiy targ'ibotning innovatsion usullari hamda ilg'or xorijiy tajribadan yetarlicha foydalanilmayotgani ko'rsatilgan.

Mazkur Farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan. Jumladan, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, huquqiy ta'lim-tarbiyani maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab uzluksiz tashkil qilish, yoshlar ongiga huquq va burch, halollik, poklik hamda odob-axloq normalarini singdirish, huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalq tarixi, milliy va diniy qadriyatlar bilan uyg'un olib borish belgilangan. Ushbu vazifalar huquqiy tarbiyaning faqat yuridik ma'lumot berish emas, balki huquqiy bilimni ma'naviy qadriyatlar va fuqarolik mas'uliyati bilan birlashtirishga qaratilgan kompleks jarayon ekanini ko'rsatadi.

Ta'lim muassasalaridagi huquqiy tarbiya uzluksizlik, yosh xususiyatlarini hisobga olish va amaliy yo'naltirilganlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarga adolat, tenglik,

navbat kutish, boshqalarning buyumlariga tegmaslik va kelishilgan qoidalarga amal qilish kabi oddiy ijtimoiy-huquqiy ko'nikmalar beriladi. Maktabda Konstitutsiya, bola huquqlari, huquq va burchlar, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka oid boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi. Oliy ta'limda esa kasbiy faoliyatga tegishli huquqiy bilimlar, huquqiy tahlil, normativ hujjatlar bilan ishlash va huquqiy qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlantirilishi kerak.

Huquqiy tarbiyaning samaradorligi ta'lim usullariga ham bog'liq. Faqat ma'ruza va qonun moddalarini yodlatishga asoslangan mashg'ulotlar talabalarda barqaror huquqiy e'tiqod va amaliy ko'nikma hosil qilmasligi mumkin. Shu sababli muammoli vaziyatlar, sud jarayoni modellari, huquqiy kazuslar, munozaralar, yuridik klinika faoliyati, davlat organlariga murojaat tayyorlash, normativ hujjatlarni tahlil qilish va jamoatchilik nazorati shakllaridan foydalanish muhimdir. Bunday usullar shaxsga huquqiy bilimni amaliy vaziyatda qo'llash, o'z fikrini huquqiy dalillar bilan asoslash va qonuniy yechim topishni o'rgatadi.

Shu bilan birga, huquqiy tarbiya bir tomonlama targ'ibotga aylanib qolmasligi kerak. Agar fuqarolarga qonunlarga hurmat qilish tushuntirilsa-yu, davlat organlari va mansabdor shaxslarning o'zi qonun talablariga rioya qilmasa, huquqiy tarbiyaning ishonchliligi pasayadi. Shuning uchun davlat xizmatchilarining huquqiy madaniyati, ularning fuqarolarga munosabati, qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi, ochiqligi va asoslanganligi aholi huquqiy tarbiyasining amaliy namunasi hisoblanadi. PF–5618-son Farmonda davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish alohida vazifa sifatida belgilangani bejiz emas.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish joizki, huquqiy tarbiya huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning oddiy vositalaridan biri emas, balki ularning shakllanishini ta'minlaydigan zarur va asosiy shartdir. Huquqiy tarbiya orqali shaxs qonunlarni bilibgina qolmay, huquqning ijtimoiy qadri

anglaydi, huquq va burchlar birligini qabul qiladi, qonuniy xulq-atvor ko‘nikmalarini egallaydi hamda o‘z huquqlarini qonuniy vositalar bilan himoya qilishga tayyor bo‘ladi. Huquqiy tarbiyaning huquqiy ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya, huquqiy targ‘ibot, yuridik amaliyot va fuqarolik faolligi bilan uyg‘un olib borilishi jamiyatda qonunga hurmat, huquqbuzarliklarga murosasizlik va faol fuqarolik pozitsiyasini qaror toptiradi. Shu bois huquqiy tarbiyaga qisqa muddatli targ‘ibot kampaniyasi emas, balki shaxsning butun hayoti davomida amal qiladigan, davlat va jamiyat institutlari hamkorligiga asoslangan uzluksiz ma’naviy-huquqiy jarayon sifatida yondashish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] Turg‘anbayeva N. *Kasbiy huquqiy madaniyatni shakllantirishga oid o‘quv-uslubiy materiallar*. — Nukus, 2016. 10-12-betlar.
- [2] O‘sha manba. 12-bet.
- [3] Tojixonov U., Saidov A.X. *Huquqiy madaniyat nazariyasi: ikki tomli darslik. 1-tom*. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998. 15-17-bet.
- [4] Turg‘anbayeva N. Ko‘rsatilgan asar. 13-bet.
- [5] O‘sha manba. 12-14-bet.
- [6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–5618-son Farmoni.
<https://lex.uz/ru/docs/4149765>